



RUS TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA SAMARALI USULLAR

Hamidova Mahbuba Qaharovna

FarDu rus tili metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Ismonaliyeva Afruza Mahmuali qizi

*FarDu chet tillari fakulteti: ingliz tili yo'nalishi 1 – bosqich 25.126 – guruh
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola yaqin 10 yil ichida qo'llanib kelinayotgan yangi va zamonaviy metodlarning rus tilini o'qitishda foydasi va ularning afzalliklarini ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning eshitish, diqqatni jamlash, darslarda faol qatnashishida va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim bo'lgan omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy metodlar, nutq ko'nikmalari, metodika.

Bugungi zamonaviy dunyoda chet tillarini bilish har bir insonga muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, rus tili Markaziy Osiyo hududida keng qo'llaniladigan tillardan biri hisoblanadi. Rus tilini va ummuman tilni mukammal o'rganish nafaqat ta'lim olishda, balki ish faoliyatida ham katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shuning uchun, uni eng samarali usullar orqali o'rganish muhimdir. Tilni o'rganish uchun yuqori darajada natija beradigan usullardan biri — bu til muhitiga kirishdir. Bunga ruscha filmlar va multfilmlarni tomosha qilish, podcastlarni tahlil qilish, musiqa tinglash, kitoblarni mutolaa qilish kiradi. Bu metodlar nafaqat rus tilini o'rganish balki boshqa chet tillarini o'rganish osonlashadi. O'quvchi til muhiti orqali tabiiy ravishda yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi.

Rus tilini o'rganishda lug'at boyligini doimiy ravishda oshirib borish zarur. Har kuni yangi so'zlar bilan tanishish va ularni amalda qo'llash muhimdir. Kartochkalar (flashcards) usuli bu borada juda yaxshi ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy texnologiya asrida eslatma (reminder) har bir gadjet va telefon qurilmalarida joylashgan bo'lib, bu ilovalar yodlash va ko'z xotirasini rivojlantiradi.

Tilni to'g'ri o'rganish uchun grammatika qoidalarini bilish zarur. Rus tilida kelishiklar, fe'llar zamonlari va jins kategoriyalari muhim o'rin tutadi. Aynan grammatika qolgan barcha ko'nikmalarga ta'sir qiladi.

Tilni o'rganishda yana bir eng muhim bosqich — bu gapirishdir. Do'stlar bilan yoki o'qituvchi bilan rus tilida muloqot qilish nutqni o'stiradi. Hatto kundalik hayotda oddiy gaplardan boshlash ham katta natija beradi. O'quvchida o'ziga bo'lgan ichki ishonchni uyg'otadi. gapirish bilan birga



tinglab tushunish ko'nikmasi rivojlanadi. Bu degani bir harakat bevosita ikkinchi shaklni o'stiriyapti. Yuqorida aytilganidek hammasi bir-biriga uzviy bog'liq hisoblanadi.

Bugungi kunda turli mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali til o'rganish osonlashdi. Masalan, interaktiv darslar, video materiallar va testlar orqali bilimni mustahkamlash mumkin. Duolingo kabi ilovalar yosh til o'rganuvchilarini qiziqarli o'yinlari bilan o'ziga jalb qiladi. You Tube orqali o'rganuvchilar onlayn darslar, matn va filmlarni oson va qulay shaklda va eng asosiy hammasi bepul tarzda joylanishi juda ham ko'p imkoniyatlar yaratadi. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, rus tilini o'rganishda audio va video materiallardan muntazam foydalanish talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasini an'anaviy yodlash usullariga qaraganda tezroq rivojlantiradi.

Har bir yutuqni muntazamlilik tashkil qiladi. Har kuni oz bo'lsa ham shug'ullanish katta natijalarga olib keladi. Sabr va qat'iyat esa muvaffaqiyat kalitidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tillarni o'rganish ayniqsa rus tilining murakkab grammatik qoidalarga asoslanganligi qattiq mashaqqat talab qilsa ham, to'g'ri yondashuv va zamonaviy texnikalar orqali uni osonlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. J. **Chet til o'qitish metodikasi**. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Shchukin A. N. **Metodika prepodavaniya russkogo yazyka kak inostrannogo**. - Moskva: Vysshaya shkola, 2010.
3. Azimov E. G., Shchukin A. N. **Noviy slovar metodicheskix terminov i ponyatii (teoriya i praktika obucheniya yazykam)**. - Moskva: IKAR, 2009.
4. Passov E. I. **Kommunikativniy metod obucheniya inostrannomu govoreniyu**. - Moskva: Prosveshchenie, 1991.
5. Leontyev A. A. **Yazyk i rechevaya deyatel'nost v obuchenii**. - Moskva: Flinta, 2003.
6. Richards J. C., Rodgers T. S. **Approaches and Methods in Language Teaching**. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
7. Nation I. S. P. **Learning Vocabulary in Another Language**. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Polat E. S. **Noviye pedagogicheskiye i informatsionniye texnologii v sisteme obrazovaniya**. - Moskva: Akademiya, 2008.